

## ShARTNOMA № 9

(Isitish tizimini joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish xakida)

Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi nomidan raxbari N.Madaliev bir tomondan va "ChP ANOR QURILISH FAYZ INVEST" MChJ keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi nomidan raxbari **Qudratjon Xolmatov** ikkinchi tomondan kuyidagilar to'grisida ushbu shartnomani tuzdilar:

### 1.Shartnoma predmeti

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirigiga asosan Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 6,21,25 umumta'lim maktablarida isitish tizimini joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi xamda amaldagi kurilish me'yor va koidalari buyicha sifatli ish bajaradi.

### 2.Shartnoma baxosi

2.1. Shartnoma baxosi 152 096 000 (Bir yuz ellik ikki million to'qson olti ming) so'mni tashkil kiladi.

### 3.To'lov shartlari

3.1. Bajariladigan ishlar kiymatini 30 % mikdorida Buyurtmachi tomondan oldindan Pudratchi xisob rakamiga xak o'tkazib beriladi.

3.2. Bajarilgan ta'mirlash ishlari Buyurtmachi tomondan belgilangan tartibda tegishli kurilish me'yorlariga rioya qilgan xolda F-2 dalolatnomasi asosida kabul kilib olinadi

3.3. Shartnoma buyicha bajarilgan ish uchun xisob-kitob xar oyning yakunida amalga oshiriladi va yakuniy xisob kitob ishi tulik tamomlangandan keyin, (bunga ishni qabul qilib olish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishni xam qo'shib) Buyurtmachi tomondan amalga oshiriladi.

3.4. Bajarilgan ishni maxsus komissiya tomondan qabul qilib olinmasa, bajarilgan ishga xaq to'lash ishlari amalga oshirilmaydi.

### 4.Majburiyatlarni bajarish muddatlari

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1 bo'limida nazarda tutilgan ishlarni 15 kalendar kuni ichida bajaradi.

4.2 Buyurtmachi Pudratchi tomondan bajarilgan ishga belgilangan muddatda xaq to'lashi maxalliy byudjetdan muntazam ravishda mablag' ajratib berishga bog'lik ekanligini, shu sababdan bajarilgan ishlar uchun xaq to'lab berish muddati 2-oygacha chuzilishi mumkin. Bu muddat bajarilgan pudrat ishi yakunini maxsus komissiya (davlat komissiyasi) tomondan kabul qilib olingan sanadan xisobga olinadi.

4.3 Pudratchi tomonidan loyixa-smeta xujjatlaridan chetga chiqqan xolda bajarilib, ish sifati yomonlashtirilgan takdirda, taraflar kelishuviga muvofik belgilangan muddat davomida mavjud kamchiliklarni Pudratchi o'z xisobidan bepul bartaraf etish.

## **5. Taraflarning majburiyatlari**

### **5.1. Pudratchi:**

5.1.1 Pudratchi Shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan mablag' o'tkazilgandan so'ng 2 ish kuni ichida joriy ta'mirlash ishlarini boshlaydi va 15 kalendar kun ichida yakunlaydi.

5.1.2. Ta'mirlash ishlarni to'la xajmda va muddatida bajarilishi va tegishli loyixa xujjatlaridagi xolatida ishlarni Buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirilishi;

5.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bo'lgan materiallarni konstruksiyalarni butlovchi ashyolar yetkazib berish va ularni kabul kilish, tushirish taxlash xamda saklashni amalga oshirish.

5.1.4. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb kilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani to'g'risida buyurtmachiga axborot berish va u tomonidan ishlarni bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash:

5.1.5. Texnika xavfsizligi, yongin xavfsizligi va ob'ektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora tadbirlarni bajarilishini ta'minlashi kerak.

5.1.6 Pudratchi ob'ektda qurilish ishlarini boshlashdan avval ob'ekt bo'yicha o'zining mas'ul xodimini (javobgar shaxsni) buyruq asosida tayinlash.

### **5.2. Buyurtmachi:**

5.2.1. Kalendar ish rejasida belgilangan xajmda va muddatda ob'ektni Pudratchiga topshirishi.

5.2.2. Ushbu shartnomaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan ishlarga shartnomada belgilangan mikdorda va muddatda Pudratchiga xaq to'lashi shart.

5.2.3. Pudratchidan yozma xabarnoma olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida ob'ektni qabul qilishi shart.

5.2.4. Ob'ekt binoning ichkari qismida joylashgan bo'lsa qo'riqlash uchun buyurtmachi tomonidan ob'ektni qo'riqlash uchun mas'ul xodim birlashtirilishi lozim.

## **6. Taraflarning javobgarligi**

6.1. Pudratchi shartnoma shartlarini buzsa belgilangan muddatda pudrat ishlarini tugatmasa kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5% penya to'laydi.

6.2. Jami tomonlardan undirilgan penya summasi nizoli summaning 50% oshmasligi lozim.

6.3 Buyurtmachi" bajarilgan ishlar uchun tulovni o'z vaqtida amalga oshirmasa o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4% miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50%dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.4 Ob'ekt qabul komissiyasiga topshirilganidan so'ng buyurtmachi xamda boshqa xuquqni muxofaza qiluv organlar tomonidan nazorat-o'lchov tekshirish ishlari o'tkazilganda, tekshirish ishlari yakunlanguniga qadar tekshirish joyida bo'lish, Pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish ishlari bo'yicha kamchiliklar aniqlansa, javobgarlikni Pudratchi o'z zimmasiga olgan xolda, aniqlangan kamchiliklarni o'z xisobidan bartarf qilish, shuningdek qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xuquq va majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi.

6.5 Pudratchi pudrat shartnomasi tuzilgan vaktida yagona solik to'lovchisi bo'lib, joriy ta'mirlash ishlari yakunlaguniga qadar solik turini o'zgartirmaslikni va umumiy solik to'lash tizimiga o'tmaslikni o'z zimmasiga oladi, agar Pudratchi umumiy solik to'lovchi ekanligini yashirsa yoki ushbu solik turida faoliyat olib borsa, Byurmachi tomonidan ushbu solik turi bilan bog'lik ko'shimcha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

6.6 Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning bajarilishi xamda ob'ektda bajarilgan ishlarini topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

6.7 Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tuzilgan shartnoma bo'yicha o'rganilganda bajarilgan ish xizmatlar (tovar maxsulotlari) narxlari balandligi yoki olib kelingan tovar maxsulotlar (bajarilgan ish xizmatlar) xajmida kamomad aniqlangan taqdirda ushbu kamomad va tovar maxsulotlari (bajarilgan ish xizmatlar) narxlaridagi ortiqcha xisoblangan mablag' farqi «Pudratchi» tomonidan undiriladi.

## **7.Fors-mojorxolatlari**

### **8.Nizolarni xal qilish tartibi**

8.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida muzokara yuli bilan xal qilinadi.

8.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yuli bilan xal qilib bo'lmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudida qurilishiga tegishli bo'ladi.

### **9. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi**

9.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qushimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib xar ikkala taraf imzolagan xollarda xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud Uzbekiston Respublikasining amaldagi Fukarolik kodeksi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplash yuli bilan amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Buyurtmachi quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

Pudratchining aybi bilan ishlarni borishini sustkashlik bilan to'xtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarni tamom bo'lish muddati 1 oydan ko'pga oshib ketganda; Pudratchining shartnoma shartlarini buzishi natijasida loyixada ko'rsatilgan ishlarni sifati pasayganda;

9.4. Pudratchi quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha qurilish montaj ishlarini borishini 1 oydan oshadigan muddatda to‘xtatib turganda: Buyurtmachi tomonidan keyinchalik qurishni moliyalash imkoniyati yukolganda.

9.5. Buyurtmachi va Pudratchining birgalikdagi qarori bo‘yicha shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi. Buyurtmachi esa pudratchiga ular tomonidan aniklangan bajarilgan ishlarning xajmi qiymatini to‘laydi.

9.6. Shartnomani bekor kilishga karar kilgan taraf boshka tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

## 10. Boshqa shartlar

10.1. Ob‘ektlar va unga kiruvchi injinerlik tizimlari jixozlar materiallar xamda ishlarning me‘yorida ishlashiga kafolatlangan muddati uning uchinchi shaxslar tarafidan ko‘zlangan niyatda shikast yetkazgan xollari bundan istisno qilinadi. Ob‘ektni qabul qilish tug‘risidagi dalolatnomani taraflar imzolagan vaqtdan boshlab 2 oy davomida belgilanadi.

10.2. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarga 3 yil kafolat muddati belgilangan.

10.3. Kamchiliklarning mavjudligi va ularning bartaraf qilish muddatlari pudratchi va buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasi aks ettiriladi.

10.4. Agar pudratchi aniqlangan kamchiliklar dalolatnomasi ko‘rsatilgan muddat ichida bajarilgan ishlarning bunga jixozlarni xam ko‘shib kamchiliklarni bartaraf qilmasa ularni buyurtmachi boshqa bajaruvchining kuchi bilan xarajatlarni pudratchi to‘lashi orqali bartaraf qilishiga xaqli.

10.5. Pudratchi aniqlangan kamchiliklar tasdiqlash dalolatnomasini tuzish yoki imzolashdan bosh tortganda buyurtmachi malaka ekspertizasini tayinlaydi. Ekspertiza kamchiliklar va ularning tuslarini aks ettirish bo‘yicha tegishli dalolatnoma tuzadi xamda tarafning mazkur masala bo‘yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilish xuquqini istisno qilmaydi

10.6. Pudratchi qurilish ob‘ektini loyixa xujjatlarini yoki uning ayrim qismlarini buyurtmachining yozma ruxsatisiz birorta uchunchi shaxslarga sotish yoki berish xuquqiga ega emas.

10.7. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi va xar bir tomonda bir nusxadan saqlanadi.

10.8. Taraflarning xoxishlari bo‘yicha boshqa shartlar.

10.9. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan belgilangan tartibda ruyxatdan o‘tkazilgandan so‘ng qonuniy kuchga kiradi va “31”dekabr 2022 yilgacha amalda bo‘ladi

## 11. KORRUPSIYA GA QARSHI KURASHISH TUGRISIDA.

11.1. Tomonlar ularning afillangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari ushbu shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarishlari davomida korupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan yoki korruptsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni

vada qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bulish xatti xarakatlari va xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

-Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomoning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarning beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga kandaydir xatti xarakatlarni\ xarakatsizliklarni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

11.2. Tomonlar ushbu shartnomaning 11.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi tug'risidagi shubxalar yuzaga kelgan takdirida, tegishli tomon bu xaqida ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktini rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan xolda esa-amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarni xam xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 12. Tomonlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

«Pudratchi»

«Buyurtmachi»

“ChP ANOR QURILISH FAYZ INVEST”

MChJ

(tashkilot nomi)

Ko'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil:Farg'ona shaxar Anorzor ko'chasi 32 uy.

INN 305653283

Tel./faks

h/r 20208000900900464001

Manzil:Qo'shtepa tuman Qiyqi MFY Sardoba ko'chasi 31 uy

Tel./faks +998916692755

• sh/h\* 100022860302067092100075050

Bank nomi.Unversalbank Farg'ona filiali

01131

STIR 200178073 OKONX 92310

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

G'azna h/v 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank XKMM

MFO 00014 STIR 201122919

Rahbar

(F.I.Sh)



**Q.Xolmatov**  
(F.I.Sh)

(imzo)

M.O'.

N.Madaliev

(F.I.Sh)



(imzo)

M.O'



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR**

	<b>Code ni skanerlang.</b>
<b>Imzolovchi F.I.SH.</b>	<b>NOSIRJON MADALIYEV NURIDDINOVICH</b>
<b>Imzolangan sana</b>	<b>14.11.2022 13:48</b>
<b>Hujjat kodi</b>	<b>JF0161433304</b>
<b>Hulosa kodi</b>	<b>ZE1312061874</b>

Bank nomi: Investbank Farg'ona filiali  
 Manzil: Farg'ona shahri, Avtorlar ko'chasi 35-uy  
 Tel: 03623283  
 Fax: 0362000000/03620011  
 TIN: 303623283

Bank nomi: Investbank Farg'ona filiali  
 Manzil: Farg'ona shahri, Avtorlar ko'chasi 35-uy  
 Tel: 03623283  
 Fax: 0362000000/03620011  
 TIN: 303623283

Bank nomi: Investbank Farg'ona filiali  
 Manzil: Farg'ona shahri, Avtorlar ko'chasi 35-uy  
 Tel: 03623283  
 Fax: 0362000000/03620011  
 TIN: 303623283



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

ZE1312061874

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **6-21-25**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: QO'SHTEPA TUMAN XALQ TA'LIMI BO'LIMI tomonidan 11.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qo'shtepa tuman  
yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi  
markaz rahbari:**



**I.K.ZOKIROV**

14.11.2022